

MUSIQA VA TASVIRIY SAN'AT

BOSHLANG'ICH MUSIQIY TA'LIMIDA MUMTOZ CHOLG'U KUYLARNING O'RNI

Axtamov Izzatullo Ikromovich, Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti
axtamovizzat@gmail.com

Yarashev Jo'rabek To'rayevich, Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti
yarashevjorabek@gmail.com

*Musiqiy so'zning ma'nosi lahn (kuy) demak.
Lahn – aniq chegaralangan ma'lum tartibdagi
turli nag'malarning jamlanishidan yuzaga keladi.*

Abu Nasr Forobiy

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini mumtoz cholg'u kuy va ashulalar bilan oshno qilishning ahamiyati, musiqiy ta'limdagi o'rni, va ular vositasida yosh avlodni chin insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: an'anaviy kasbiy musiqiy meros, mumtoz cholg'u kuylar, kuylarni tinglash, oddiy cholg' kuylari, maqomlar yo'lidagi murakkab kuylar, cholg'u kuylarning o'ziga xos xususiyatlar.

РОЛЬ КЛАССИЧЕСКИХ ИНСТРУМЕНТАЛЬНЫХ ПАМЯТЕЙ В НАЧАЛЬНОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Ахтамов Иzzатулло Икромович, магистрант Бухарского государственного педагогического института akhtamovizzat@gmail.com

Ярашев Джорабек Тораевич, доцент Бухарского государственного педагогического института yarashevjorabek@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается значение игры на классических инструментах и песнях для младших школьников, их роль в музыкальном образовании и воспитании молодежи в духе подлинных человеческих качеств.

Ключевые слова: традиционное профессиональное музыкальное наследие, классические музыкальные инструменты, прослушивание песен, простые музыкальные инструменты, сложные песни на пути к позициям, музыкальные характеристики.

THE ROLE OF CLASSICAL INSTRUMENTAL MEMORIES IN PRIMARY MUSIC EDUCATION

Akhtamov Izzatullo Ikromovich, master student of Bukhara State Pedagogical Institute akhtamovizzat@gmail.com

Jorabek Torayevich Yarashev, associate professor of Bukhara State Pedagogical Institute yarashevjorabek@gmail.com

Annotation: The article addresses the importance of playing classical instruments and songs for elementary school students, their role in musical education, and the upbringing of young people in a spirit of genuine human qualities.

Keywords: *traditional professional musical heritage, classical musical instruments, listening to songs, simple musical instruments, complex songs on the way to positions, and musical characteristics.*

Mumtoz kuy deganda birinchi navbatda asrlar davomida sozanda va ularning muxlislari xotirasida mustahkam o'rnashgan, tartiblashgan, hamda iste'molda muayyan ramzi-majoziy ma'nolar bilan to'ldirilgan kuy asoslari nazarda tutiladi. Bu kuylarning asli qachon va kim tomonidan joriy etilganligini topishni deyarli imkoni yo'q. Lekin ularning o'zagidagi jamlanish – yaxlit parda va tovushqator tizimi zamonlar osha bezavol mustahkam musiqiy g'oya va unga mos barqaror kuy va ashulalarning jo'r qismi sifatida yashab kelmoqda.

Zikr etilgan musiqiy tizimlarni mumtoz cholg'u kuy deb e'tirof etilishining asosiy sababi, ularning haqiqattan ham boshqa kuy yo'llariga nisbatan mukammal va puxta ishlanganligidir. Shuning uchun ular kamolga yetgan imtiyozli navlar sifatida tarixga kirgan.

Mumtoz musiqa har tomonlama yetuk va mukammal bo'lgan cholg'u va ashula yo'nalishidagi asarlarni o'z ichiga oladi. Insoniyat taraqqiyotiga hamohang tarzda keng rivoj va sayqal topgan mumtoz musiqa xalqimizning ma'naviy madaniy xazinasidan joy olgan merosi hisoblanadi. Xalq yoki elatning ichki ruhiy holati, dunyoqarashi, intilishlari va orzu – havasi hamda sho'x va hazil, o'ynoqi va "mungli" ichki nidolari, kishilar o'rtasida ro'y beradigan insoniy - axloqiy munosabatlar mujassamlanib, musiqa Ohanglarida aks etib kelingan. O'tmish ajdodlarimiz hamisha katta yig'inlar, xalq bayramlari, sayillari, to'y – tomoshalarga karnaychi, surnaychi, nog'orachi hamda mumtoz musiqa ijrochilarini taklif etmasdan turib tashkil qilmaganlar, chunki bu yirik tadbirlar, anjumanlar, va marosimlarda yangragan har bir cholg'u kuyi, ijro etilgan qo'shiq-ashula yoki raqs anjuman ishtirokchilarining ruhiy holati va kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsattib, ularni xushnud qilgan. An'anaviy cholg'u musiqasi oddiy xalq kuylari va mumtoz cholg'u kuylaridan iborat bo'lib, asrlar davomida yaratilib, shakllanib, sayqal topib, badiylashib, jamoa va xususan yosh avlod tarbiyasiga kuchli tuyg'uli ta'sir ko'rsatishi bois cheksiz e'zozga loyiq bo'lib, yuksak pog'onalarga ko'tarilgan va har bir xalqning madaniy-ma'naviy boyligiga aylangan.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo'lgan musiqa cholg'u asboblari hamda sozandaning mahorati ila ulardan paydo bo'ladigan cholg'u musiqasi sadolari qadim – qadimdan boy ifodaviy va qisman shartli tasviriy imkoniyatlarga ega bo'lib kelgan. O'zbek cholg'u musiqasi barcha xalqlar musiqasi kabi o'ziga xos tarix va an'analarga ega ekanligi e'tirof etilgan. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan ushbu an'anaviy kasbiy musiqaning ajoyib namunalari o'zining rango-rang jilolari, dilkash ohanglari bilan kishilarga olam-olam shavq-zavq va hissiy huzur baxsh etib kelmoqda.

Mumtoz cholg'u kuylarimiz oddiy xalq kuylarining rivojlanishi jarayonida asosan ularning negizida vujudga kela boshlagan. Ularning mustahkam poydevori bo'lib kelgan hajmi kichik, diapazoni tor, usuli sodda (primitiv) oddiy xalq kuy va qo'shiqlari jamoaning asta sekinlik bilan rivojlanishi, har bir davr avlodining yangidan - yangi badiiy talablari va ehtiyojlariga muvofiq moslashib rivojlanib borishi natijasida o'zgarib, nafislashib, murakkablashib hozirgi holatida bizgacha yetib kelgan. Shuning bilan birga musiqa san'atining janrlari va cholg'u asboblarning turlari ham yuzaga

kelib, ko'payib, boyib, bir –biri ta'sirida uyg'unlashib, bir milliy musiqiy ko'lamni tashkil etgan qadriyatlarimizga aylangan. Bu rivojlanish jarayonida milliy musiqamizning har bir janri shakl va mazmun tuzilishi, ohang, usul va lad asoslari, turkumlanishi, nazariy va amaliy ijro uslubi an'analari va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan holda, ularning kasbiy ustozona (professional) mohir ijrochilari, takomillashgan musiqa cholg'ulari, cholg'ushunos va cholg'usoz ustalari, mumtoz ohangsoz bastakorlari hamda xuddi shuningdek yuksak didli, talabchan tinglovchilari ham paydo bo'la boshladi.

Og'zaki an'anadagi mumtoz kasbiy musiqa, xususan cholg'u ijrochiligini o'rganish tizimi masalasida ham anchagina o'zgarish va islohotlar amalga oshirila boshlandi. Musiqa san'atining nazariy asoslarini tadqiq qilishda Abu Nasr Forobiy va uning ishini davomchisi Ibn Sinoning xizmatlari beqiyos bo'ldi. Cholg'u ijrosini o'rganish ta'limining ustoz-shogird an'anasi va bu jarayonning qonun qoidalari, udumlari, majburiyatlari, vazifalari hamda o'rgatish va o'rganish usuliyoti shakllanib, umumiy tizim paydo bo'ldi.

Maqom san'ati an'anaviy kasbiy musiqamizning eng mukammal va yetakchi janri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi va boshchiligida 2018 yil 6-10 sentyabr kunlari Shahrisabzda o'tkazilgan Xalqaro maqom san'ati anjumani, Respublikamizda har 4 yilda o'tkazib kelinayotgan yosh maqom ijrochilari ko'rik tanlovi va maqom san'atini yanada rivojlantirish va keng targ'ib qilishga bag'ishlab o'tkazilayotgan turli tadbirlar og'zaki an'anadagi kasbiy musiqaning maqomlar yo'lida yaratilgan barcha mumtoz kuy va ashulalariga ham taalluqli hisoblanadi. Chunki bu rivojlangan mumtoz kuy va ashulalar ko'p jihatdan maqomlarning mushkilot (cholg'u) sho'balari va nasr (ashula) sho'balariga o'xshaydi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev aytganridek "Haqiqatan ham, biz uchun bebaho badiiy qomus bo'lgan maqom san'ati asrlar; necha yuz yillar davomida inson ruhini, uning dardu armonlarini, ezgu intilishlarini yuksak pardalarda ifoda etib kelmoqda. Sharq mumtoz adabiyoti, tasviriy san'ati, ilmu ma'rifat, islomiy qadriyatlardan oziqlangan maqom san'atiga - ana shunday buyuk madaniy meros rivojiga o'zbek xalqi ham munosib hissa qo'shgani bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz. "Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur".

Xalqimiz xilma-xil cholg'u asboblari ega bo'lib, ulardan o'ziga xos cholg'u musiqa kuylarini yaratgan. Bu cholg'ulardan chiqadigan tovushlar xususiyatlariga ko'ra torli (torli chertim (tanbur), torli plektor (ruboblar), torli kamonli (G'ijjak) va torli urma chang), puflama-damli (naysimon, tilsimon va karnaysimon) va urma-zarbli (teri bilan qoplangan o'zi sado beruvchi doira) cholg'ular guruhi va turlariga bo'linadi. Har bir cholg'u o'z shakl tuzilishi (ko'rinishi), ifodaviy vositalarining tavsifi xususiyatlari, tembri va ijrochilik uslublari bilan ajralib turadi. O'zbek musiqa cholg'ulari tanbur, dutor, do'mbira, chang, qonun, qo'biz, sato, g'ijjak, qashqar va afg'on ruboblari, ud, chang - qo'biz, doyra, nog'ora, dovul nay, sibizgi, qo'shnay, g'ajir nay, surnay, bulamon, karnay va qayta ishlangan (xalq cholg'u asboblari orkestri uchun moslab rekonstruksiya qilingan rubob prima, g'ijjak, dutor va boshqa cholg'ularning alt, bas va

kontrabas turlari)ga bo'linadi. Bu cholg'ularda ijro etiladigan musiqa asarlarining xususiyati va vazifasiga qarab yakkasoz, ansambl yoki orkestr tarkibida ishlatiladi. Shu tufayli an'anaviy yakkasoz va darta (ansambl) ijrochiligi yuzaga kelgan.

O'zbek mumtoz cholg'u musiqasi oddiy xalq cholg'u musiqasidan kuy rivoji, diapazonning kengligi, shakl murakkabligi va ijro uslubining mukammalligi bilan ajralib turadi. Bularning yirik cholg'u usullari doyra yoki nog'ora cholg'ularida ijro etilgan. Bu rivojlangan mukammal mumtoz kuylarga Cho'li Iroq, Dutor Bayoti, Munojot, Tanovar, Lazgi, Farg'onacha, miskin, Aliqambar, Qo'shchinor, Qo'shtor, Yovoii Chorgoh, Duchava, Eshvoy, Surnay Navosi, Ajam taronalari, Mushkiloti Dugoh, surnay maqom yo'llari, Maqom cholg'u yo'llari turkumi misol bo'la oladi.

Binobarin, bunday kuylar ijrosida ishtirok etadigan har bir musiqa cholg'usi mohiyatan musiqa amaliyotini takomillashtirishga, kuy va ashulalarning jozibasini oshirishga xizmat qilgan.

Bolalar har kuni turli vaziyatlarda, axborot vositalari va ba'zan jonli ijroda musiqa asarlarini tinglashadi, ijrochilarni ko'radi, maktabgacha va maktab musiqa mashg'ulotlarida ham musiqa tinglab yoki qo'shiq kuylab raqsga tushishlari mumkin. Bu musiqa ohanglarining ayrim badiiy yuksak va ta'sirchan namunalaridan qisman ma'lum bir ta'surotlar ularning xotirasida qolishi mumkin. Shunday qilib ilk yoshlardan boshlab, asta-sekin bolalarda musiqa san'ati, cholg'u asboblari, ularning ijrochilari haqida ayrim musiqiy tasavvurlar paydo bo'la boshlaydi.

Ammo bu musiqa asarlarining hammasi ham bolalarning yoshi, didi va idrok etishi imkoniyatlariga mos deb bo'lmaydi. Shu bois musiqiy merosimiz xazinasidan eng yuksak badiiy qimmatga ega, ilmiy asosda saralangan namunalarini tasniflab, sinf dars sharoitida o'quvchilarning tinglash, idorklash va o'zlashtirishlari uchun tavsiya etishimiz zarur. Bu ishlar vatanimiz mustaqillikka erishganidan keyin bir muncha jonlanib, DTSlari, musiqa darslarining yangi o'quv dasturlari va darsliklari yaratildi. Yangi darsliklarga musiqiy folklor va kasbiy aytimlar bilan bir qatorda 1-sinfda "Andijon polkasi" Xalq kuyi, "Dilxiroj" Xalq kuyi, "Olmacha anor" Xalq kuyi, "Qari navo" Xalq kuyi, "Norim-norim" Xalq kuyi, "Do'loncha" xalq kuyi, "Dutor bayoti" Xalq kuyi, "Xorazm lazgisi" Xalq kuyi, 2-sinfda "Farg'onacha" xalq kuyi, "Asp bo'laman" xalq kuyi, "Chamandagul" xalq kuyi, "Qashqarcha" xalq kuyi, " uforisi Sanam " xalq kuyi, 3-sinfda "Zafar" Xalq kuyi, "Aruxan" Qoraqalpoq Xalq kuyi, "Raqs" Xalq kuyi, "Bibigul" Qoraqalpoq Xalq kuyi, "Garduni Segoh" Segoh maqomidan, "Usmoniya" Xalq kuyi, "Nayrez" Tojik Xalq kuyi, "Samoyi Dugoh" Dugoh maqomidan, 4-sinfda "Yallama yorim" Xalq kuyi, "Ajam 11" (taronasi), "Surnay navosi" Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan, "Munojot" Xalq kuyi, "Mirzadavlat 1" Xalq kuyi, "Navro'zi Ajam" kabi O'zbek xalq mumtoz kuylari ham kiritilgan.

O'qituvchi bu oddiy va murakkab kasbiy cholg'u kuylarini imkoni boricha o'z ijrosida, bo'lmasa, audio va video yozuvlaridan foydalanib tinglashni tashkil etishi va ulardan ayrim parchalarni zamzama usulida ya'ni, kuyni bitta bo'g'inda (na, lya) kuylashni mashq qilishi talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son qarorining 2. a) bandida 2022/2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim

muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash, umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilariga milliy cholg'ularning kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalari o'rgatilishi hamda bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritilishi, musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkazilishi, milliy cholg'ulardan kamida bittasida, 2023/2024-o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lish musiqa fani o'qituvchilari uchun majburiy hisoblanishi va boshqa chora-tadbirlar belgilangan.

Finlyandiya tajribasi asosida yuzaga kelgan bu talablarni amalga oshirish juda murakkab vazifalardan bo'lib, buning uchun zaruriy shart-sharoitlar (masalan har bir o'quvchiga fakultativ cholg'u ijrosi darslari o'tkazish uchun bir o'quv yilida kamida 33-35 soat yakka alohida (individual) mashg'ulotlar o'tkazilishi) talab etiladi. Amaliy musiqiy ijro ta'limi shunchalik serxarajat bo'lishiga qaramay, dunyo yuzidagi barcha musiqa o'quv dargohlarida, jumladan o'zbekistonda ham shunday tizim joriy etilgan.

Cholg'u musiqasi aslida insonning quloqlari orqali moddiy asosda, ya'ni, cholg'u asbobidan yaratilgan nomoddiy ma'naviy (uni ko'rib, yo qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan) tovushlar kuchi bilan zo'r ta'sir ko'rsatuvchi bir vosita bo'lib, uning ohanglariga qanday vazifani qo'ysangiz, shuni ado etadi. Agar hozirgi globallashuv davrining talablaridan kelib chiqib nag'ma (tovush)larga odamning ruhiy holati va uning kayfiyatini bo'zadigan keskin yoqimsiz (dissonans) ohanglar, xuddiy shunday keskin, meyordan ancha baland shovqinli usul (ritm)larni buyursa, shunday bema'ni, mazmuni xarob, soxta "kuy"lar vujudga keladi. Agar ko'p asrlar qa'ridan bizgacha yetib kelgan madrasa va minoralardek ko'chmas tarixiy obidalarga teng bo'lgan musiqiy folklor, maqom, doston, cholg'u kuy, ashula, katta ashula va yovvoyi maqom kabi ajdodlardan avlodlarga, ustozlardan shogirdlarga o'tib, nafis sayqal topib, xalqimizning uzoq o'tmishdan boshlangan tarixiy musiqiy yo'li bo'ylab odimlab kelayotgan mumtoz kasbiy musiqiy meros namunalaridan tanlab olingan sara repertuardan unumli foydalanib, o'quvchi yoshlarni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalamoqchi bo'lsak, unda biz Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning sa'y harakatlari va rahbarligida an'anaviy mumtoz mustqiy merosimizni yanada rivojlantirish hamda umumbashariy darajada targ'ib qilishga qaratilgan Xalqaro anjumanlar va festivallardan ruhlanib, bu bebaho duru javohirlarimizni uzluksiz musiqiy ta'limning barcha bosqichlariga jalb etib, ularni puxta o'rganish va o'rgatishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 17-noyabrdagi qarori – Buxoro: Buxoronomoma 2017- yil. 25-noyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning birinchi Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. Qashqadaryo: 2018. 8-sentyabr.

3. <https://www.gazeta.uz> – “Maktab o‘quvchilariga kamida bitta milliy cholg‘u asbobini chalish mahorati o‘rgatiladi”. 3 fevral 2022
4. Qo‘shayev A.E. O‘quvchilarni cholg‘u asboblari bilan tanishtirish (tanlov g‘olibi bo‘lgan maqola): Sovet maktabi № 5, may 1985 yil 55-57 betlar.
5. S.Begmatov, D.Karimova, Q.Mamirov Musiqa. 6-sinf uchun darslik.- T.: G‘.G‘ulom, 2008.-6-62.
6. Petrushin V.I. Muzikalnaya psixologiya. – M., 1997. – s. 3-15
7. Rajabov I. Maqomlar. – T.: San‘at, 2006.- b. 148 – 165.
8. “O‘zbek xalq musiqasi” 1-4 jild; (to‘plovchi va notaga oluvchi Y.Rajabiy, 1955-1958 y; Toshkent. G‘afur G‘ulom nashriyoti.
9. R. S. ABDULLAYEV . “O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQASI” Madaniyat, son 'at kollejlari va akademik litseylar uchun o 'guv qo 'llanma. Toshkent: «Yangi nashr», 2008-y.
10. "Mumtoz musiqaning sharqona an'analari: ilm-fan va ta'lim" [Matn] mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami // "Sharq musiqasi kafedrası tashkil etilganligining 50 yilligiga bag'ishlanadi // Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti. - Toshkent - 2023.

- 2.Rasm,
- 3.Haykalchilik,
- 4.Me'morchilik,
5. O‘yun,
- 6.Adabiyot.

Keskin siyosiy o‘zgarishlar natijasida vujudga kelgan Abdurauf Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” risolasi milliy merosning qonuniyatlari jo bo‘lgan, o‘tmish va yangicha zamon mafkuralari mujassamlashgan ulkan tadqiqot namunasidir. U o‘zbek musiqasining yorqin shakli –Shashmaqom timsolida mintaqamiz musiqiy salohiyatini o‘rganish borasidagi yangi o‘zbek musiqashunosligining debochasi sifatida benazir ma’naviy boylik hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A.Fitrat “Adabiyot qoidaları ” Nashrga tayyorlovchi H.Boltayev
2. A.Fitratning “O‘zek klassik musiqasi va uning tarixi ” T.“Fan” nashriyoti 1996- yil 56- b.
3. “MUsiqa madaniyati va uning hayotdagi o‘rni ” <https://cyberleninka.ru>
4. <http://interscience.uz>